



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Azimov Abduraxmon Mamatovich¹

¹ Samarqand davlat universiteti boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INNOVATSION DARS BERISH METODI ORQALI MUMTOZ ADABIYOT VAKILLARINING ASARLARINI O'TISH USULLARI

Annotatsiya: *Innovatsion usullar bilan dars berish, yangi texnik vositalar va texnologiyalar bilan o'quvchilar ongini qurollantirish juda murakkab jarayon sanaladi. Chunki hozirgi yoshlar texnika taraqqiyoti davrida yashayapti. Ba'zi yoshlar siz-u bizdan ham oldinroq voqyea hodisalardan xabardor bo'lmoqda.*

Ta'lim tarbiya berayotgan pedagog interfaol metodlar asosida ijodiy, evristik, tadqiqiy, muammoli, innovatsion, noan'anaviy usullarni qo'llab dars samaradorligiga erishmog'i lozim. Mazkur maqolada shu metodlarning eng mahsuldor va samaralilari tavsiya etilgan. Hozirgi zamonda pedagogikada xalqaro miqyosda qabul qilingan va qabul qilinayotgan usullarni qo'llash yo'llari 4-sinf "O'qish kitobi" darsligidan olingan "Ma'naviyat qalb quyoshi" mavzusi misolida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *Nutq, matn, kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya, nutqiy kompetensiya, innovatsiya, interfaol, metod, boshlang'ich sinf, O'qish kitobi, o'qituvchi, o'quvchi, dars, Husayn Voiz Koshifiy.*



Аннотация: *Инновационное обучение студентов новым методам и технологиям - очень сложный процесс. Потому что сегодняшняя молодежь живет в эпоху технического прогресса. Некоторые молодые люди знают о том, что происходит до нас с вами.*

Педагог должен быть творческим, эвристическим, исследовательским, решающим проблемы, новаторским и нетрадиционным, основанным на интерактивных методах. В этой статье рекомендуется наиболее продуктивный и эффективный из этих методов. Способы применения международно признанных и признанных методик в современной педагогике иллюстрируются на примере темы «Духовность - солнце сердца» из учебника «Хрестоматия» для 4 класса.

Ключевые слова: *Речь, Текст, Компетентность, Социальная компетентность, Речевая компетентность, Инновации, Интерактивность, Метод, Начальная школа, Учебник, Учитель, Студент, Урок, Хусейн Ваз Кашифи.*

Annotation: *The innovative teaching of students to new methods and technologies is a very complex process. Because today's youth lives in an era of technological progress. Some young people know about what is happening before you and me.*

The educator must be creative, heuristic, exploratory, problem-solving, innovative and non-traditional, based on interactive methods. This article recommends the most productive and efficient of these methods. Ways of applying internationally recognized and recognized methods in modern pedagogy are illustrated by the example of the theme "Spirituality - the sun of the heart" from the textbook "Reader" for grade 4.

Keywords: *Speech, Text, Competence, Social Competence, Speech Competence, Innovation, Interactivity, Method, Elementary School, Textbook, Teacher, Student, Lesson, Hussein Waz Kashifi.*

Kirish. Har bir dars, yoki mavzuni o'rganishda o'ziga xos texnologiya, metod va vositalarni tanlash va foydalanishga to'g'ri keladi. O'qitish jarayonida yuqori darajaga erishish uchun dars jarayonini oldindan zarur. Loyihalashtirish jarayonida o'qituvchi predmetning o'ziga xos xususiyatini, o'quv joyini va sharoitini, o'quvchilarning ehtiyojlarini hamda imkoniyatlarini, bilim saviyasini, sharoitiga qarab ishlatiladigan texnologiyalarni tanlashi kerak. Shuning uchun ham bo'lajak dars jarayoni loyihalanishi kerak. Bunda darsning texnologik xaritasini tuza olish juda muhimdir. Chunki darsning texnologik xaritasi darsning qiziq bo'lishi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Darsda o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilimlarning kafolatlanishiga yordam beradi. Darsning texnologik xaritasini qanday ko'rinishda yoki qanday shaklda tuzish o'qituvchining mahorati, tajribasi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi va imkoniyatiga bog'liq.

Dars texnologik xaritasining ko'plab variantlari mavjud, lekin texnologik xarita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holatga aks etgan bo'lishi, darsning maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalar, darsda ishlatiladigan texnologiya va metodlar aniq belgilab qo'yilgan bo'lishi kerak.

O'quvchi ta'lim jarayonining markazida turishi kerak. O'qituvchi esa, ta'lim jarayonida turli xil innovatsion texnologiyalarni qo'llab, talabalar kutayotgan muammolarni yechib berishi lozim. O'qituvchi birinchi navbatda, ushbu muammolarni keltirib chiqargan sabab va oqibatlarini izlab topishi yo'l-yo'riq ko'rsatishi va buning uchun o'quvchilarda muammolarni yechish malakasini shakllantirib berishi kerak.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.

Boshlang'ich sinflarning ona tili va o'qish darslarida berilgan mavzularni o'quvchilar ongiga mukammal yetkazish juda murakkab va ma'suliyatli masala sanaladi.

Interfaol bilim berish uchun o'qitishning xilma xil metodlaridan foydalaniladi, bular: Ijodiy o'qish, evristik, tadqiqiy, reproduktiv, muammoli innovatsion... [1]

Bu metodlarning barchasidan koʻzda tutilgan asosiy maqsad ulgʻayib kelayotgan yosh barkamol avlodni savodli oʻqimishli, yangi gʻoya va tushunchalarni aniq va toʻgʻri fahmlaydigan, toʻgʻri xulosa chiqarib oladigan barkamol, yetuk shaxslar qilib tarbiyalashga qaratilgan.

K.Abdullayeva, S.Raxmonbekovalarning “2-sinfda oʻqish darslari” oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi vazirligi tasdiqlagan kitobda 2-sinf bolalarini oʻqish tezligini oshirish ifodali oʻqish malakalarini egallash, badiiy matn ustida ishlash, sheʼr va kichik matnlarni yod olish, tushunganlarini gapirib berish kabi ish turlarini koʻproq oʻtkazish koʻzda tutiladi [2]. Shuningdek, darslikda berilgan har bir matn oʻquvchilarning fikrlash doiralarini oʻstirish bilan birga, ularga tevarak-atrofga munosabat, odob-axloq malakalarini oʻzlarida mujassamlash, asardagi qahramonlarni tanqid qilish, ulardagi eng yaxshi xususiyatlarni egallash, irodali, mehnatsevar, jasur, kamtar, vijdonli, mehribon va iltifotli boʻlish kabilarni oʻzlashtirib borishga qaratilgan.

M.Xudoyberganova, S.Fuzailov, Z.Muxtorovalarning 3-sinfda ona tili darslari, yaʼni oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanmada oʻquv yili davomida oʻrganiladigan fonetika, grammatika, soʻz yasalishi boʻyicha taqdimot tavsiya etilgan. Dars namunalari darsni tashkil etish, oʻrganilgan mavzu yangi mavzuni bayon etish va uni mustahkamlash metodlari koʻrsatilgan [3].

S.Matchonov, X.Gʻulomova, Z.Dolimovlarning 4-sinfda oʻqish darslari oʻqituvchilar kitobida oʻqishning barcha bosqichlariga oid mavzular berilgan. Uning oʻziga xos xususiyati oʻquvchilarni badiiy adabiyotning sehrli olamiga olib kirish, dunyoqarashlarini milliy istiqloq mafkurasi asosida toʻgʻri shakllantirishga qaratilishi bilan belgilanadi [4].

Tanlangan mavzular oʻquvchilarga kundalik hayot, mustaqillikni mustahkamlash va insoniy munosabatlar boʻyicha bilim va tarbiya berishni tarbiyalaydi. Ularning ichida istiqloq, vatan, maʼnaviyat va tabiat haqidagi mavzular alohida ajralib turadi.

M.Qurbonov, A.Gʻulomov, T.Gʻafforova, K.Husanboyeva, E.Shodmonov, G.Eshgurdiyev, Sh. Yoʻldasheva, E.Gʻoziyev singari boshlangʻich sinf oʻquvchilari

uchun darslik va qo'llanmalar yaratgan olimlar o'z asarlarida zamonaviy o'qitish metodlari, innovatsion usullar, informatika va axborot texnologiyalari bo'yicha zamonaviy texnologiyalar asosida dars o'tish yo'llarini ko'rsatib berdilar.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'quvchilarga tushunchalar orqali takdim etilayotgan o'quv materiallarining ma'no mazmuni tushunchalarning belgilarini sanab o'tish bilan emas, balki unga qo'shimcha ravishda boshqa tushunchalar bilan o'zaro bog'liqligini ko'rsata olish katta samara beradi. Tushunchalarning mantiqiy sxemasining paydo bo'lishiga olib keladi [5].

Yoshlarning asosiy shakllanish va rivojlanish davri ta'lim va tarbiyaga bog'liq. Shuning uchun ta'lim tarbiya sohasida ularni psixologik jihatdan shakllantiruvchi olimlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini faollashtirish va mavzulararo bog'lanishni amalga oshirish zarur.

Pedagogik jarayon va o'qituvchi pedagogik faoliyatining sifatini belgilash uchun pedagogik kvalimetriya usulidan foydalanib ish tutish ham foydadan holi emas. Kvalimetriya so'zining asl ma'nosi lotincha *kval-sifat, metriya-ulchov* ma'nolarini anglatadi. Bunda o'qituvchining amaliy fikr qilishi muayyan vaziyatlarni xolisona, to'g'ri tahlil qilishi, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Interfaol mashg'ulotlarda o'quvchilarning tayorgarliklariga o'ziga xos talablar qo'yiladi. Bular mashg'ulotda faol ishtirok etish uchun zarur bilimlarni o'zlashtirganlik, muloqotga tayyorlik, o'zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil fikrlash, o'z fikrini bayon qilish va himoya qila olish ko'nikmalari va boshqalardan iborat [6].

Darhaqiqat, mustaqil izlanayotgan tashabuskor o'qituvchi, tarbiyachilar dars berishining turli-turli yangi metodlarini ijod qilib hayotga, dars jarayoniga qo'llamoqdalar. O'quvchilar diqqat va irodaviy jarayonni mustahkamlashga qaratilgan "Blis o'yini", "Muammoni hal etish", "Munozara", "Tanqidiy fikrlash", "Bumerang", "Mojar", "Aqliy hujum", "Tarozi", "O'z o'rningni top", "Dibetlar",



“Klaster”, “Konkret vaziyatli metod”, “Insident” va boshqa shunga o‘xshash interfaol usullardan foydalanishmoqda.

Shu jarayonda innovatsion tushunchalar asosida yangi-yangi metodlarni qo‘llab ish tutayotgan pedagoglarimiz juda ko‘p.

Innovasion tushuncha muayyan tizimning ichki tuzilishini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan faoliyatdir. Innovasiya tushunchasi 1919 yilda Berlinda joriy etilgan. Innovasion faoliyatning tarkibiy elementlarining muallifi V.Slastenindir. Bu metodga ko‘ra, yangi g‘oya, tizim, faoliyat yunalishini o‘zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan‘anaviy yondashuvlar, odatiy bo‘lmagan tashabbuslar, ilg‘or ish uslublar va ularning ko‘rinishlari e‘tiborga olinadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qitish metodikasining asosiy maqsadi o‘qish va ona tili fanlarining samarali yo‘llarini interfaol metodlar orqali o‘quvchilar ongiga yetkazish ekan, bunda ijodiy o‘qish, evristit tadqiqot, reproduktiv, muammoli dars o‘tishlardan ijodiy foydalanib ish tutish talab qilinadi.

Innovasion tushuncha mustaqil izlanadigan tashabbuskor o‘quvchi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Interfaol mashg‘ulotlarning usullari ko‘p bo‘lib, bularning hammasi shaxsning shakllanishiga bir xilda ta‘sir ko‘rsatmaydi. Demak o‘qituvchi o‘quvchi shaxsida har bir psixik jarayonlarni yoki xususiyatlarni shakllantirish uchun interfaol metodlarni to‘g‘ri tanlay bilishi lozim. Mumtoz adabiyot vakillarining asarlaridan foydalangan holda o‘quvchilarni yoshlikdan tarbiyalab shakllantirib borishimiz, bolalar haq-huquqi uchun kurashadigan, amaliy hayot qiyinchiliklarini, murakkabliklarini ro‘yi-rost anglab uni uddalay oladigan dalil, irodali qilib tarbiyalashimiz kerak. Buning uchun yoshlarimiz ongini mumtoz adabiyot vakillarining mag‘zi to‘liq fikr mulohazalari bilan boyitish talab qilinadi.

Sharq mutaffakirlari ijod etib qoldirgan buyuk meros asarlarini xoh dars jarayonida, xoh boshqa bir joyda bayon qilinayotganda ularning mazmun mohiyatini maromiga yetkazib tushuntirish lozim. Masalan 4-sinfning “O‘qish kitobi”da “Ma‘naviyat qalb quyoshi” (11 soat) mavzusi o‘tilayotganda o‘rganiladigan



mavzular o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy jihatdan inson qilib tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Bilimning “Salomlashish odobi” (Xusayn Voiz Koshifiy) mavzusi bilan boshlanishining o‘ziyoq o‘quvchilarning ruhiyatiga ma’naviy ozuqa berishga qaratilganligiga misoldir. Bo‘limdagi matnlar bilan tanishish jarayonida o‘quvchilar insondan faqat yaxshi nom qolishi chaqimchilik, xiyonatdan hazar qilish, non-tuz haqida xiyonat qilmaslik kerakligini o‘rganadilar. “Hadisdan namunalar” mavzusida oq-u qorani ajratishda, bilimning afzalligi, ilmli kishilarning xor bo‘lmasligi haqida bilimlarni o‘rganib boradilar. Bu maqsadlarga erishish uchun esa, o‘qituvchi turli ko‘rgazmali qurollardan, hikoyat, rivoyat, maqollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur mavzuni quyidagicha rivojlantirib o‘quvchilar ongiga yetkazish mumkin:

Mavzu: “Ma’naviyat qalb quyoshi”

O‘quv material: “Salomlashish odobi”, Husayn Voiz Koshifiy.

Darsda o‘qituvchining maqsadi: Dars bu – sinfda taqvim – mavzu reja asosida belgilangan vaqt davomida o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar uchun o‘quv tarbiya jarayonining maqsadli tashkil etishdir. Shunday ekan, har bir o‘qituvchi darsda sifatli va puxta tayorlanmasdan kirishi insoniylikka, pok vijdonga xiyonat ekanligini va ish haqini halolab olishi lozimligini his qilishi kerak. Chunki, har bir fan o‘qituvchisi faoliyatini asosini sifatli dars o‘tish, o‘quvchilarga yaxshi ta’lim tarbiya berishini taqazo etadi.

O‘qituvchining darsga tayorgarligi shartli ravishda quyidagi ikki bosqichdan iborat:

1. O‘qituvchining o‘z fani yuzasidan umumiy tayorgarligi bo‘lishi.
2. O‘qituvchining har bir darsga kundalik tayyorgarligi bo‘lishi kerak.

O‘qituvchining umumiy tayyorgarligi muntazam amalga oshirib boriladigan jarayon bo‘lib, o‘quv yili boshlanishidan oldin quyidagilarni qamrab oladi:



- Davlat ta'lim standarti (DTS), o'quv dasturi, o'quv reja hamda ularga berilgan tushuntirish xatlarini o'rganib chiqish.
- O'zi dars beradigan o'quv faniga oid yangi ilmiy va metodik adabiyotlarning mazmuni bilan tanishtirish.
- Tegishli ko'rgazma materiallarini, o'quv jihozlarini o'rganish, ularni qo'llay bilish.
- Ilg'or o'qituvchilarning ish tajribalarini o'rganish, tahlil qilish orqali o'z bilimini kengaytirish.
- Kompyuter texnikasidan foydalanish ko'nikmasini shakllantirib, bu boradagi mahoratini oshirish, elektron darsliklar, matn muharrirlari, "ZiyoNet" axborot ta'lim portaliga joylangan ma'lumotlardan samarali foydalanish kabilardir. O'qituvchining darsga kundalik tayyorgarligi eng asosiy vazifalardandir.

Mavzuga qaytadigan bo'lsak,

A) Ta'limiy maqsad:

- Husayn Voiz Koshifiy haqida ma'lumot berish.
- O'quvchilarning salomlashish odobi haqida tushunchalarini boyitish,
- Salom so'zining asl ma'nosini tushuntirish,
- O'quvchilarni kattalar va tengdoshlari bilan salomlashishga o'rgatish,
- O'qish malakasining sifatlari: to'g'ri, tez va ifodali o'qishlarini takomillashtirish,
- O'quvchilar lug'atni mavjud so'z va so'z birikmalari bilan boyitish,
- Fikrni izchil tartib bilan bayon qilishga o'rgatish ko'zda tutiladi.

B) Tarbiyaviy maqsadda esa mavzudan kelib chiqib ma'naviyat insonning fiyel-atvori, axloq odobi, madaniyati va dunyoqarashini anglatadigan tushunchani o'quvchilar ongiga singdirishdir. Xushmuomala, keng tushunchali, boshqalarga faqat yaxshilik qiluvchi, mehnatsevar fidoiy kishilarning ma'naviyat dunyosi boy deb ulug'lanadi. Aksincha fakat o'zini o'ylaydigan xudbin baxil va ta'magir, yalqov kishilarga, ma'naviy dunyosi past qashshoq deyiladi.

Ma'naviyat boylikning birinchi belgisi salomlashish odobidir. Shu jaryonda o'qiladigan asar nomi va uning muallifi hakida ma'lumot beriladi.

Jumladan, Husayn Voiz Koshifiy XV asrning yirik olimlaridan bo'lgan. U bundan 500 yil muqaddam yashagan bo'lsada, axloq odobga oid ilmning, ma'rifatning afzalliklarini alohida ta'kidlaydi. Yoshlarni ilm olishga, bilimli bo'lishga chaqiradi. Bilimni qadrlashni o'rgatadi. Koshifiy Xurosonda Husayn Boyqaroning odil maslahatchisi bo'lgan. Saltanat ishlarida shohga ko'maklashgan.

V) Rivojlantiruvchi maqsad: O'quvchilarning so'z boyligini o'stirish fikrlash qobiliyatini o'stirish, asar, matnidan mustaqil xulosa va mantiq chiqarishga o'rgatish.

G) Ijtimoiy kompetensiya chiqarishga o'rgatish: DTS talabalariga muvofiq o'quvchilarga shakllangan fanga oid kompetensiya elementlari quyidagilardir. (Shu o'rinda kompetensiyaning turlari haqida, ma'lumot berishni lozim topdik) Nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetensiya, kommunikativ, axborot kompetensiyasi, o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi va hokazo.

Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, o'qish, so'zlash, yozish) mavzu doirasida o'qituvchi nutqini va sodda audio (mulmtimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarni tinglab tushuna oladi; ko'rgan rasmlari va o'qib eshittirilgan matn yuzasidan o'qituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi. Nutq jarayonida o'zlashtirilgan yangi so'zlarni og'zaki nutqda qo'llay oladi. Nutq va matnning gaplardan tuzilishi, matni mazmunan bog'langan gaplari orqali bera oladi. Kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplarni, gaplar mazmuniga ko'ra farqlaydi, oxiridagi nuqta, so'roq va undov belgilariga qarab o'qiy oladi, ajrata oladi. Gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali o'qiy oladi. Rasmlarga qarab gap tuzadi va yoza oladi, yozuvdagi imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda ko'chirib namunaga qarab yozadi va mavzu doirasidagi savollarga javob beradi.

Zotan, Ahmad Yugnakiy, Yusuf Xos Hojib, Najmiddin Kubro, Maxmud Qoshg'ariy, Axmad Yassaviy, Imom al- Buxoriy, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiyy, Ali Qushchi singari o'nlab daholarning ilm ma'rifatga doir aytgan fikrlarini talabalar ongiga yetkazish kerak. Ularni axloqiy o'g'itlari nasihatlari bizni tarbiyamizga juda qo'l keladi.



Tahlil va natijalar. Nazariy izlanishlar, ilmiy xulosalar asosida o‘tkazilgan metodik tushunchalar hozirgi zamon darslarini mukammal ijobiy va qoniqarli o‘tishni ta’minlaydi.

Hozirgi maktablarimizda dars berishning innovatsion usulidan tashqari, xalqaro o‘qish metodlaridan foydalanib faoliyat ko‘rsatayotganlarni ko‘ramiz. talabalar bilimni amaliyotda qo‘llash qobiliyatini baholovchi xalqaro dastur hisoblanadigan Pisa, xalqaro baholash turi biri, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini baholash mezoni aniqlovchi Pirls, matematika va tabiiy fanlarni o‘zlashtirish sifatini xalqaro monitoring qilish va baholash tizimi Timss, ta’limdagi bo‘shliqlarni to‘ldirish uchun xalkaro yordam tufayli foydalanilmagan resurslarni ishga tushirishga yordam beruvchi TALIS dasturlari. Albatta, bularning barchasi o‘qituvchining kasbiy tayorgarligi uchun yordam vositasidir.

Xulosa va takliflar Zamon shiddat bilan o‘zgarib bormoqda kundan-kun yangiliklar, kashfiyotlar kirib kelmoqda. Hozirgi sharoitda vatanimiz taraqqiyotini ta’minlashga xizmat qiladigan barkamol avlod taqdiri hych kimni befarq qoldirmaydi. Kirib kelayotgan yangi texnik vositalar ham, an’anaviy dars berish metodlari ham yoshlar tarbiyasi uchun xizmat qiladi. Lekin bir narsani unutmash kerak. Bolaning miyasi omborxonasi emas, topgan narsani joylashtiravergani. Hozirgi kunda ayniqsa 10-15 yoshli bolalar kompyuter va telefonning asiri bo‘lib qolmoqda. Turli kasalliklarni ortirib olmoqdalar. Shuning uchun har narsaning me’yori yaxshi degan shiorga amal qilish lozim.

Ta’lim tarbiyada innovatsion dars berish usullari orqali mumtoz adabiyot vakillarining ijodlaridan namunalar o‘tishda yuqori natijalarga erishish uchun eng avvalo o‘quvchilarning shaxsiy xususiyatlari qiziqish va intilishlarini inobatga olish lozimligi esdan chiqmaslik kerak. Buning uchun ularning individual xususiyatini e’tibordan chetlashtirmaslik lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Shadiev, R., Shadiev, N., Fayziev, M., Halubitskaya, Y. Improving Student Learning Satisfaction in Lectures in English as a Medium of Instruction with Speech-Enabled Language Translation Application. *Lecture Notes in Computer Science (including subseries Lecture Notes in Artificial Intelligence and Lecture Notes in Bioinformatics)*, 2020, 12555 LNCS, str. 576–581. https://doi.org/10.1007/978-3-030-63885-6_62..
2. Umarova M., Xamrokulova X., Tojiboyeva R. O‘qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. -Toshkent, O‘qituvchi, 2016.
3. Xudoyberganova M., Fuzailov S., Muxtorovalarning Z. Ona tili. 3-sinf darsligi, -Toshkent, O‘qituvchi, 2018.
4. Matchonov S. va boshqalar. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. -Toshkent 2017.
5. Fayziev, M. (2020). Methods of teaching the "operators" section in the teaching of pascal programming language on the basis of a logical scheme of concepts. *Journal of Critical Review*, 2056-2060. <http://www.jcreview.com/fulltext/197-1596870648.pdf?1597229253>
6. Fayziyev M. Dasturlash tilining «Operatorlar» bo‘limini kompyuter imitatsion modeli asosida o‘qitish metodikasi. **"Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi" ilmiy-metodik jurnali (ISSN: 2181-1776)**. Published 2020-12-30 <http://bilig.academiascience.org/index.php/isepsmj/article/view/11/12>